

XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARI ADABIYOTIGA BIR NAZAR

Nodirjon G'AFUROV

O'zbekiston Milliy universiteti 2- bosqich tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677083>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi o'zbek adabiyoti uzoq davrlarni boshdan kechirib, uni katta uch davrga – qadimgi, mumtoz va yangi adabiyotga ajratib o'rganish mumkinligi haqida fikr yuritiladi. Bu jarayonda turkiy tilda yaratilmish adabiyot yuksalishdan to'xtab qolmadi. Mumtoz davrdan yetib kelgan adabiyotlar bir necha yuz yillikni tashkil etadi. Bu davrdan yangi adabiyotga o'tish jadidchilik harakati bilan bevosita bog'lanadi. Zamonaviylashish, yangilanishning badiiy adabiyotga ta'siri, zamonaviy adabiyotga o'tish va uning mumtoz adabiyotdan farqi bugungi kunda ham yangi o'zbek adabiyotining asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada badiiy adabiyot jamiyatda bo'lgan inson hayotini o'zida aks ettirishi ochib beriladi. Badiiy adabiyot ixlosmandlari esa ulardan kerakli xulosalarni chiqarishi zarurligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: “Qutadg'u bilig”, “Padarkush”, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, zamonaviy adabiyot, usuli savtiya, matbuot.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что сегодняшняя узбекская литература прошла долгий путь развития, и её изучение можно разделить на три больших периода: древний, классический и новый. В этом процессе литература, созданная на тюркском языке, не прекращала своего подъёма. Литературное наследие, дошедшее до нас из классического периода, охватывает несколько столетий. Переход от этого периода к новой литературе напрямую связан с движением джадидизма. Влияние модернизации и обновления на художественную литературу, переход к современной литературе и её отличие от классической литературы и сегодня служат основой новой узбекской литературы. В статье раскрывается, что художественная литература отражает жизнь человека в обществе. Также высказывается мнение о том, что любители литературы должны делать из этого необходимые выводы.

Ключевые слова: «Кутадгу билиг», «Падаркуш», классическая литература, джадидская литература, современная литература, усули савтия (звуковой метод), пресса.

Abstract. This article discusses how modern Uzbek literature has evolved over a long historical path and can be categorized into three major periods for study: ancient, classical, and modern. Throughout this process, literature created in the Turkic language never ceased to flourish. The literary heritage inherited from the classical period spans several centuries. The transition from this era to modern literature is directly linked to the Jadidism movement. The impact of modernization and renewal on fiction, the transition to contemporary literature, and its distinction from classical literature continue to serve as the foundation of modern Uzbek literature today. The article reveals that fiction reflects human life within society. It also suggests that literature enthusiasts should draw the necessary conclusions from these works.

Keywords: “Qutadghu Bilig”, “Padarkush” (The Patricide), classical literature, Jadid literature, modern literature, Usul-i Saviya (phonetic method), press.



O‘zbek adabiyoti uzoq davrlarni boshdan kechirdi. Ularni yozuv shakli, ma’no - mazmuniga ko‘ra katta uch davrga – qadimgi, mumtoz va yangi adabiyotga ajratib o‘rganish mumkin. Qadimgi davr adabiyoti mumtoz adabiyotga arab tili va arab grafikali yozuv bilan o‘z o‘rnini bo‘shatib bergani sir emas. O‘z navbatida mumtoz adabiyot ham o‘z o‘rnini zamonaviy adabiyotga bo‘shatishga to‘g‘ri keldi. Ayniqsa, bu jarayonda turkiy tilda yaratilmish adabiyot yuksalishdan to‘xtab qolmadi. Mumtoz davrdan yetib kelgan adabiyotlar bir necha yuz yillikni tashkil etadi. Bu davrdan yangi adabiyotga o‘tish jadidchilik harakati bilan bevosita bog‘lanadi. Shuningdek, zamonaviylashish, yangilanishning badiiy adabiyotga ta’siri, zamonaviy adabiyotga o‘tish va uning mumtoz adabiyotdan farqi bugungi kunda ham yangi o‘zbek adabiyotining asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mumtoz adabiyot va jadidchilik. Mumtoz adabiyot deyilganda bugungi kunda barcha so‘z ixlosmandlarining tasavvurida eski o‘zbek yozuvidagi matnlar tushunilishi, bor gap. Shu jihatdan, “mumtoz” so‘ziga to‘xtalib, uni izohlash o‘rinlidir. Mumtoz adabiyot tushunchasi va mumtozlik belgilari sifatida adabiyotshunoslar shunday fikr bildirishadi: “Mumtoz” (arabcha) so‘zi lug‘atda tanlangan, saralangan yoki xos, maxsus ma’nolariga ega. Uning Ovro‘pa tillaridagi muqobil bo‘lgan “klassik” (lotincha) so‘zi ham ayni mana shu ma’noda qo‘llaniladi. Bu so‘zning “klass”, ya’ni biror ijtimoiy sinfga aloqador deb talqin qilinishi xorijiy manbalarda uchramaydi. “Mumtoz” so‘zi muayyan asarga, adibga yoki adabiyotning katta bir davriga munosabatda nisba, sifatlash bo‘lib qo‘llanilishi mumkin. Masalan, mumtoz asar, mumtoz shoir, mumtoz adabiyot kabi. Bu o‘rinda baholash ma’nosi ham mavjud bo‘lib yuksak namunali boshqalardan ajralib turuvchi ma’nolariga ham ega”. [2,12]

Ushbu jumlada keltirilgan “mumtoz” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratib, mumtoz adabiyot atamasini keng va tor ma’noda tushunish mumkin bo‘ladi. Keng ma’noda, “mumtoz adabiyot” deganda insoniyat tarixidan ma’lum bo‘lgan, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, shakl va mazmun tomonidan adabiy me’yorlarga mos keladigan, Sharq va G‘arbda asrlar oshsa-da, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay, ularga murojaat qilinayotgan asarlarni tushunish mumkin bo‘ladi. Tor ma’noda “mumtoz adabiyot” Sharq yoki G‘arb xalqlariga tegishli bo‘lgan asarlarning yaratilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bularni yana xalqlar kesimida ham ajratish mumkin. O‘zbek mumtoz adabiyoti, turk mumtoz adabiyoti (devon adabiyoti) kabi. Turkistonda “mumtoz adabiyotning shakllanishi va taraqqiyotini Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi sahnaga chiqquncha bo‘lgan davr qayd etiladi”. [1.9] Ayni shu davrdan zamonaviy adabiyot shakllana boshladi. “Bu voqealar shunchaki emas, murakkab jarayonlari bilan aks etdi.



Istilo va uning oqibatlari, Vatan va Millat taqdiri hamisha adiblarimizning ko‘z o‘ngida turdi. Bu adabiyotning chegarasi, ko‘lami ham katta: Muqimiydan Cho‘lpongacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Janrlari, ifoda vositalari ham xilma-xil. Ayniqsa vaqtli matbuot va teatrning yo‘lga qo‘yilishi adabiyotning imkoniyatlarini kengaytirib yubordi.”[9,294]. Ming yillik adabiy an‘analardan birdaniga voz kechib zamonaviy adabiyotga o‘tish, albatta, oson emas. Shuning uchun zamonaviy adabiyotga o‘tishdan oldingi davrni, “mumtoz adabiyot” va “zamonaviy adabiyot” uchun ko‘prik vazifasini bajargan davriy jarayonni, muhim hisoblash va unga e‘tibor qaratish to‘g‘ri bo‘ladi.

Zamonaviylashish. Milliy uyg‘onish davri adabiyotining yana bir nomi “jadid adabiyoti” nomi bilan ham yuritiladi. Badiiy adabiyotda yangilanish tarixi va sabablari bir necha asr ilgoriga borib taqaladi. XVII asr oxiri Sharq xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-harbiy tanazzuli bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi Yevropadan yangi ilmiy-texnik yutuqlar bilan birga ijtimoiy hayot bilan bog‘liq yangiliklarni ham qabul qilishni taqazo etardi. Bu haqida B.Qosimov o‘zining “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoiylik” [8,76-78] asarida yangilanishning tarixini turk sultonlarining humkmronlik davrlari bilan bog‘liq holda izohlab ko‘rsatadi. Lekin bu vaqtda Turkiston hududida 1876-yildan boshlab o‘z hokimiyatini mustahkamlay boshlagan podsho Rossiyasi mintaqa xalqlarini siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma‘naviy jihatdan o‘z nazoratidan chiqarmaslikka tirishardi. Shu bilan birga matbuot sahifalarida ularning xabarlarini va boshqa ma‘lumotlari e‘lon qilinishi tabiiy bir hol edi. Bu davrda gazetachilik shu qadar rivoj topdiki, tatar ziyolilarining “Vaqt”, “Tarjimon” va boshqa jaridallari ham Turkiston o‘lkasida keng yoyila boshladi.

Oqibatda, gazetalardagi xabarlardan yangi fikrlar o‘zlashtirildi, so‘ng ular mumtoz shaklga solina boshlandi. Mumtoz asarlarimizdan arab va fors so‘zlarini o‘qib tushunish, yangilik olib keluvchi gazetalarda orqali kirgan ruscha so‘zlar bilan endi yana bir karra mashaqqat bo‘ldi. Natijada, fikr yangi, shakl eski holda saqlandi. Bu yangi fikrlarni eski shaklga solish XX asr boshlarigacha davom etdi. Bu vaqtda ma‘rifatchilik adabiyoti asosida jadid adabiyoti shakllana bordi. “Jadidchilikning ruhi va mazmunini o‘zida bekami-ko‘st namoyon etgan jadid adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o‘ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalari badiiyatiga ko‘ra u qadar yuksak emas, shiorbozlik ko‘zga tashlanadi. Jadid adabiyoti 10-yillarning oxiri, 20-yillarning boshidagina har jihatdan to‘laqonli adabiyotga aylandi”[8,128].

Yangi fikrning qolipi ham yangi bo‘lishi kerak edi. Bu ishni jadid namoyandalari amalga oshirishdi. Furqat, Zavqiy, Muqimiy kabi ijodkorlarning fikrlarini Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon singari yangi shakl, yangi janr tarafdorlari



namoyish qilishdi. Bu haqida Abdulla Qodiriy o‘z tarjimai holida shunday yozadi: “1913 yilda o‘zbekcha “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oina” gazetalarida chiqqan boshlag‘och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg‘ondi.”[6].

Yangilanishning badiiy adabiyotga ta’siri. Jadidchilik qardosh tatar xalqi orqali o‘zbek xalqi hayotiga kirib keldi. Tatar ziyolilarining jadid maktablari ochishi, shu yo‘nalishda qator maktablar paydo bo‘lishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Abdulla Qodiriy bu haqida o‘z tarjimai holida “Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig‘on gazetalarini o‘qib, dunyoda gazeta degan gap borlig‘iga imon keltirdim” – deb yozadi. Tatar ziyolilari haqida so‘z ketar ekan, Ismoil Gaspirinskiy, Abdurahmon Sa’diy asarlariga murojaat qilmaslik mumkin emas. Abdurahmon Sa’diy “Saylanma asarlar”ining ikkinchi tomida yangilanishning tarmoqlari sifatida adabiy til, fanlar, diniy uyg‘onish, jadidchilik harakati va “usuli savtiya” hamda badiiy adabiyot (matur adabiyot) ko‘rsatiladi. “Badiiy adabiyotda yevropalashuv. Tatar adabiyotida islohotchilik va yevropalashuv harakati XIX asr 2-yarmining oxirida o‘zini namoyon qila boshladi. Bu, bir tomondan, bevosita rus adabiyotining ta’siri orqali, ikkinchi tomondan, o‘sha davr tatar ziyolilari orasidan o‘qimishli yuqori tabaqa vakillari usmonli va rus adabiyotini o‘qib, o‘rgana boshladilar. Ular orqali yangi adabiy shakllar bilan tanisha boshladilar”. [6.96] Natijada XX asr boshlariga qadar mumtoz shakl o‘z o‘rnini zamonaviy janrlar va shakllarga bo‘shatib bera boshladi. Aruz vazni yetakchi sanalgan mumtoz adabiyot emas, endi barmoq vaznidan ko‘proq foydalanildi. Lekin adabiy jarayon to‘xtab qolmadi. Xususan, nazmiy va nasriy asarlar yaratish bilan bir qatorda tarjimalar ham amalga oshirildi, Cho‘lponning Pushkindan “Boris Godunov” va “Dubrovskiy”, Shekspirdan “Hamlet”, Molyerdan “Xasis”, Gozzidan “Malikayi Turondot”, Abdulla Qodiriyning Gogoldan “Revizor”, A.Chexovdan “Olchazor” kabi asarlarini misol keltirish mumkin. Jahon adabiyoti bilan tanishgan va ulardan tarjima qilgan jadidlar endi o‘zlari ularga o‘xshash asar yarata boshlashadi. Yuqoridagi tarjima asarlardan ko‘rinib turibdiki, rus, ingliz, italyan va boshqa xalqlar adabiyoti ta’siri ularning ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy adabiyotga o‘tish. Jadid adabiyotida gumanizm, vatanparvarlik tushunchalari insonni, o‘z xalqini, o‘z vatanini ozod qilish bilan bog‘landi. “Shu bilan birga, ular sahnadagi hayotni ko‘rib, rus teatrlariga qiziqishni boshladilar. Natijada g‘arb adabiyotiga monand shaklda ratsionalizm va sentimentalizm ruhida hikoyalar, romanlar va dramalarning tug‘ilishiga zamin yaratildi. Shu kabilarga ozmi-ko‘pmi ehtiyoj sezildi” [10.96]. Yangi shaklga o‘tishga sabab yangi fikrlarni yangi shaklga solish edi. Bu davrda jadidlar asrlar davomida xalqning ongi shuuriga singib ketgan shaklan o‘xshashlikdan qochishdi. Mazmuni, saviyasi, badiiy didi, o‘xshatmalari



quyma shakldan, ishora qiluvchi ramzlardan chekinishdi. Ijodkorlar sodda, ravon, tushunilishi oson, oddiy xalq uchun murakkab bo‘lmagan asarlarni yaratish uchun harakat qilishdi. Mumtoz adabiyotni tushunish ko‘p ilmlardan xabardorlikni talab qiladi. Lekin jadid davrida yozilgan asarlar boshlang‘ich bilimlarga ega o‘quvchi uchun qiyin emas edi. Bu davrda badiiy adabiyot o‘quvchilar ommasi uchun moslashtirildi. Ommaviy tarzda oddiy xalqning fikriy uyg‘onishi yuz berishi kerak edi, shunday bo‘ldi ham. Ammo bu ko‘p davom etmadi, yana boshqa mafkuraviy tizim adabiyotni ham o‘z nazoratiga oldi.

XX asr 20-yillaridan eski shakl o‘z o‘rnini yangi o‘zlashtirilayotgan janrlarga bo‘shatib bera boshladi. Yangi shakllarni olib kirish, ularda ijod namunalarini yaratish jadidlar orasida kengaydi. Badiiy adabiyotning har xil turlarida, har xil janrlarida, ayniqsa, hikoya, roman, pyesa shaklida yaratilgan asarlar xalqqa taqdim etildi. Xususan, XX asr boshida qardosh tatar adabiyotida yozilgan “Salima” va “Asmo” hikoyalari Riza tomonidan ijod qilingan bo‘lsa, Turkistonda XX asr 10-20 yillarida “Uloqda” A.Qodiriy tomonidan, “Novvoy qiz” Cho‘lpon tomonidan hikoyalar yozildi. Jadid maktablarida ta‘lim olgan o‘quvchilar endi jadid ijodkorlarining yangi shakl va yangi fikr bilan yo‘g‘rilgan asarlarini o‘qiy boshladi. Dastlab, maorif tizimidagi yangilanishlarning uzviy davomi bo‘lgan matbuotchilikda namoyon bo‘lgan jadidchilik fikrlari xalq ma‘naviyatini boyitdi. Yozilgan asarlar xalq orasida o‘z o‘rnini egallay boshladi.

Mumtoz adabiyotdan farqi. Yaratilgan zamonaviy shakldagi asarlar oldingi asarlardan shakli, mazmuni, g‘oyasi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda yaratilgan asarlarda ijtimoiylashuv kuchaydi (“Novvoy qiz” hikoyasida boy va qizning “maza” tasviri). Bu kabi voqealarning tasviri mumtoz adabiyotda (“Layli va Majnun” dostonida Qays va Laylining visol tasviri) va folklorda (“Kuntug‘mish” dostonida Kuntug‘mish va Xolbekaning visol tasviri) tashbehtar bilan ifodalanar edi. Yangi adabiy shakllarda bunday oshkoralik oddiy xalqning sezimlarini junbushga keltiradi va shu bilan badiiy adabiyot o‘zining estetik vazifalaridan birini bajaradi. Millat oydinlari bulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish tarafdori edi. Jadidlarning bu harakatlari yangilik tarafdori bo‘lgan xalqni shu hoida yangicha hayot uchun tayyorlay boshladi. Ziyolilar xalq bundan to‘g‘ri xulosa chiqaradi deb ishonishdi. Shuningdek, uzoq vaqtlar davomida ulug‘lab kelingan, ta‘rifi satrlarga sig‘magan tasvirlarni tushunarli va sodda qilib o‘quvchiga yetkazish yangi shakldagi badiiy adabiyotning ommalashishini ta‘minladi va unga ustunlik berdi.

Shunday qilib quyidagi jadvalni xalqning ijtimoiy hayotini badiiy adabiyot va matbuot sahifalarida aks etishi sifatida keltirish mumkin.

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Davriy ketma-ketlik	Milliy uygʻonish davri adabiyoti (yangi adabiyot shakllanishining dastlabki bosqichi)	Mahalliy matbuotning yuzaga kelishi	Jadid adabiyotining ommalashishi	Zamonaviy adabiyot va yangi ifoda shakllari
	Muqimiy, Furqat, Zavqiy (sayohatnomalarida xalq hayotini oshkora koʻrsatish, hajv qilish, gazeta bilan aloqa, “Hajvi ahli rasta”ning ilinishi, devoriy gazeta kabi)	“Vaqt”, “Tarjimon”, “Xurshid”, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston” va boshqalar.	Badiiy adabiyotning jadid maktablari uchun darsliklar va kitoblarda namoyon boʻlishi.	Sonet, sochmalar, hikoya, roman, qissa, drama va h.k.z.lar yuzaga kelishi.

Xulosa shuki, millat mafkurasining uygʻonishi, yangilanishi bir muncha murakkab jarayon sifatida baholanadi. Bu davr oddiy xalqning boshiga tushgan bir qancha voqealar bilan bir qatorda, ayni shu davrda kirib kelgan zamonaviy, moddiy-madaniy texnikalar bilan izohlanadi. Bugungi kunda ham zamonaviy texnologiyalardan xabardor boʻlish davr talabidir.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdullayev H.D. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – T.: Choʻlpon nomidagi NMIU, 2019. – B. 152.
2. Boltaboyev H., Qozoqboyeva D. Mumtoz adabiyotga kirish va poetika asoslari. – T.: OʻzMU, “MUMTOZ SOʻZ” 2023. – B. 156.
3. <https://akadmvd.uz/oz/news/cholpon-mohir-tarjimon-va-jurnalist>
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-novvoy-qiz-hikoya>
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qodiriy-1894-1938/abdulla-qodiriy-uloqda-hikoya>
6. <https://tafakkur.net/abdulla-qodiriy.haqida>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qodiriy#Tarjima_asarlari
8. Qosimov B. Milliy uygʻonish: jasorat, maʼrifat, fidoiylik. – T.: “Maʼnaviyat”, 2002. – B. 400.
9. Бегали Қосимов, Шариф Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев, Суннат Аҳмедов. миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – T.: МАЪНАВИЯТ, 2004. – B. 296. www.ziyouz.com кутубхонаси
10. Сәғди Г. Сайланма әсәрләр. Т. 2 / Г. Сәғди; төз., текст. иск. һәм аңл. әзерл.: Л.Р. Надыршина, И.Г. Гомәров; кереш сүз авт. Л.Р. Надыршина. – Казан: ТӘҺСИ, 2024. – Б. 352.